



Asosiy tarkib



**Yirik
korxonalar**




**Kichik biznes va xususiy
tadbirkorlik subyektlari**


Dastlabki ma'lumotlar

Namangan viloyati bo'yicha 2022 - yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 11 293,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 14,3 % ga ko'paygan. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 976,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 145,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 10 317,3 mlrd. so'mni (12,0 % ga ko'paygan). Shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 649,2 mlrd. so'mni (20,0 % ga ko'paydi) tashkil etdi.

Tarkibiy qism, ulushlarda



o'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda






HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT


Namangan viloyati bo'yicha 2022- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **11 293,4** mlrd. so'm ni tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 14,3 % ni tashkil etdi.

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda ko'payish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **91,4 %** va yirik korxonalar hissasiga **8,6 %** to'g'ri keldi.



YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda

NAMANGAN VILOYATINING
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2022- yil yanvar -avgust



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	
		2021-yil Yanvar-avgust
		2022-yil Yanvar-avgust

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar–avgust oylari yakuniga ko'ra, 10 317,3 mlrd.so'm ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 12,0 % ga ko'paygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 91,4 % ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda Uychi (99,1 %) Kosonsoy (98,8 %), Yangiqo'rg'on (97,6 %) , Chortoq (97,2 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





2022 - yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Chust (123,0 %), To'raqo'rg'on (120,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





■ Chakana savdo aylanmasi

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	11293,4	114,3	976,1	145,9	10317,3	112,0
Namangan sh.	5071,1	112,4	416,2	147,0	4654,9	110,1
tumanlar:						
Mingbuloq	316,9	112,7	12,3	315,4	304,6	109,8
Kosonsoy	452,3	111,4	5,6	107,3	446,7	111,5
Namangan	500,8	114,1	36,5	281,4	464,3	109,0
Norin	486,0	118,2	35,6	97,2	450,4	120,2
Pop	631,4	109,0	27,5	56,6	603,9	113,8
To'raqo'rg'on	749,6	120,4	73,1	145,8	676,5	118,2
Uychi	582,6	120,2	5,1	104,5	577,5	120,4
Uchqo'rg'on	423,4	111,9	23,9	98,4	399,5	112,8
Chortoq	438,3	110,5	12,4	105,3	425,9	110,7
Chust	1130,3	123,0	315,5	180,9	814,8	109,5
Yangiqo'rg'on	510,7	112,2	12,5	94,1	498,2	112,8

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2022 - yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 45,9 % ga ko'paygan va **976,1** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,6 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra **10 317,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021 - yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **12,0 %** ga ko'paygan. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,4 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Uychi, (99,1 %), Kosonsoy (98,8 %), va Yangiqo'rg'on (97,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 8,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chust (27,9 %), To'raqo'rg'on (9,8 %), Namangan sh.(8,2 %) tumanlarida kuzatildi.



NAMANGAN VILOYATI Bo'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

NAMANGAN VILOYATINING
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2022- yil yanvar- avgust

2022-yil yanvar-avgust oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 834,5** ming so'm (2021-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 11,7 % ga ko'paygan). Chust (120,7 %), To'raqo'rg'on (117,5 %), Uychi (117,4 %) va Norin (115,9 %) tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida ko'payish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Namangan shahri (7 626,8 ming so'm), Chust (4101,3ming so'm) va To'raqo'rg'on (3 191,3 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2021- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, % da
Namangan viloyati	3 834,5	111,7
Namangan sh.	7 626,8	109,6
tumanlar:		
Mingbuloq	2 404,7	110,2
Kosonsoy	2 067,2	108,9
Namangan	2 709,9	111,5
Norin	2 860,7	115,9
Pop	2 771,7	107,0
To'raqo'rg'on	3 191,3	117,5
Uychi	2 610,0	117,4
Uchqo'rg'on	2 367,9	109,7
Chortoq	2 118,3	108,4
Chust	4 101,3	120,7
Yangiqo'rg'on	2 241,9	109,8



UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022 - yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,7 %** ni tashkil etib, **184,6** mlrd. so'mga yetdi va 2021 - yil yanvar- avgust oylariga nisbatan **16,6 %** ga ko'paygan. Bunda jami savdo aylanmasining **85,1 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasining
o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	184,6	116,6	27,4	397,6	157,1	103,8
Namangan sh.	105,1	117,6	19,9	290,0	85,1	103,2
tumanlar:						
Mingbuloq	4,6	104,6	-	-	4,6	104,6
Kosonsoy	4,5	105,3	-	-	4,5	105,3
Namangan	13,0	132,8	2,8	-	10,2	104,7
Norin	3,7	106,8	-	-	3,7	106,8
Pop	9,5	103,5	-	-	9,5	103,5
To'raqo'rg'on	5,5	104,2	-	-	5,5	104,2
Uychi	3,2	106,8	-	-	3,2	107,4
Uchqo'rg'on	5,2	104,4	-	-	5,2	104,4
Chortoq	5,0	103,0	-	-	5,0	103,0
Chust	21,5	132,8	4,7	-	16,8	103,7
Yangiqo'rg'on	3,7	105,9	-	-	3,7	105,9

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik
korxonalar




Mikrofirma va
kichik korxonalar

Namangan viloyati bo'yicha 2022 - yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **5 287,1** mlrd. so'm ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **22,7 %** ga ko'paygan Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi **1 085,5** mlrd. so'mni (**37,9 %** ga ko'paygan), mikrofirmalar va kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **4 201,6** mlrd. so'mni (**119,3 %** ga ko'paygan).


o'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar





NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI


ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

NAMANGAN VILOYATINING
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2022- yil yanvar-avgust

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Kosonsoy(111,9 m.), Pop(68,4 m.), Namangan (40,2 m.) tumanlarida kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari, Namangan (218,1 %), Kosonsoy (210,7 %) Norin (190,2 %) viloyatlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	5287,1	122,7	1085,5	137,9	4201,6	119,3
Namangan sh.	3165,4	115,2	556,7	246,8	2608,8	103,5
tumanlar:						
Mingbuloq	80,7	177,9	0,1	27,3	80,7	178,5
Kosonsoy	232,5	210,7	19,0	111,9 m.	213,5	193,7
Namangan	217,1	218,1	36,9	40,2 m.	180,2	182,6
Norin	268,7	190,2	68,7	228,5	200,0	179,8
Pop	175,5	157,9	49,8	68,4 m.	125,7	113,9
To'raqo'rg'on	240,5	78,0	164,3	70,6	76,2	101,1
Uychi	291,5	104,0	47,0	37,2	244,5	158,7
Uchqo'rg'on	107,3	134,2	53,2	117,8	54,1	155,4
Chortoq	196,3	135,5	0,0	0,0	196,3	175,2
Chust	128,0	101,2	89,9	97,5	38,2	110,9
Yangiqo'rg'on	183,6	161,3	0,0	0,0	183,6	161,3

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar- avgust oylari yakuniga ko'ra, **4 201,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **20,5** % ga ko'paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **79,5** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Yangiqo'rg'on va Chortoq, (100,0 %), Mingbuloq, (99,9 %), tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Chust (29,8 %) tumaniga to'g'ri keldi.

Yirik korxonalar	Mikrofirma va kichik korxonalar	
		2021- yil Yanvar- avgust
		2022- yil Yanvar-avgust

Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi
Tel : (69)-211-72-00